# Mamlakatlararo tashqi savdo ma’lumotlarini solishtirishning amaliy jihatlari

**Soatov Sanjar Sarvarovich**
*Bojxona qo`mitasi, Tashqi iqtisodiy faoliyat ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatlararo tashqi savdo ma’lumotlarini ko‘zgu statistikasi asosida solishtirma tahlil qilishning amaliy jihatlari yoritilgan. O‘zbekiston va Xitoyning 2024-yildagi tashqi savdo statistikasi misolida eksport va import ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovutlar tahlil qilinib, ularning asosiy tovar guruhlari kesimidagi ko‘lami aniqlangan. Tadqiqot yakunida ikki davlat bojxona organlari o‘rtasida tashqi savdo ma’lumotlarini o‘zaro solishtirish mexanizmini rivojlantirish hamda real vaqt rejimida axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** BIG Data, ko‘zgu statistikasi, tashqi savdo, bojxona statistikasi, eksport, import, statistik tafovut, bojxona to‘lovlari, noqonuniy import, ma’lumotlar almashinuvi.

**Abstract.** This article examines the practical aspects of comparative analysis of international foreign trade data based on mirror statistics. Using the 2024 foreign trade statistics of Uzbekistan and China as a case study, discrepancies between export and import indicators are analyzed, and their scale across the main commodity groups is identified. Based on the results of the study, proposals are developed to improve the mechanism for mutual reconciliation of foreign trade data between the customs authorities of the two countries and to establish real-time information exchange.

**Keywords:** Big Data, mirror statistics, foreign trade, customs statistics, export, import, statistical discrepancy, customs duties, illegal imports, information exchange.

O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasi yildan-yilga o‘sib borayotgan bugungi zamonda, BIG data asosida tahliliy amallar asosida muammolarni hal qilishga bo‘lgan talab ham oshib bormoqda. Shunga ko‘ra, bugungi kunda bojxona organlarida BIG data tahlil imkoniyatlaridan amalda keng foydalanilishi hisobiga quyidagi bir qator ijobiy natijalarga erishilmoqda:

**birinchidan,** tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha to‘plangan ma’lumotlar bazasi asosida xavf profillari va indikatorlari shakllanmoqda.

**ikkinchidan,** bojxona organlari o‘zidagi mavjud kuch va vositalarni BIG datada yuqori xavfga ega bo‘lgan elementga safarbar etmoqda va shu asosida mehnat resursini optimal taqsimotiga erishilmoqda.

**uchinchidan, bojxona organlari** katta ma’lumotlar bazasini boshqa davlat tashkilotlar bilan o‘zaro almashish asosida, bojxona to‘lovlarini to‘liq undirilishiga va noqonuniy Tovar aylanmasining oldi olinishiga erishilmoqda.

**To‘rtinchidan,** BIG datadagi mantiqiy amallar asosida bojxona organlarining ayrim ish jarayonlarida avtomatlashtirilishiga erishilmoqda.

**Beshinchidan,** ikki hamkor mamlakatning tashqi savdo bojxona statistikasi ma’lumotlarini tahliliy solishtirish, ya’ni ko‘zgu statistikasini amalga oshirish asosida bojxona to‘lovlarini to‘liq undirilishiga va bojxona qonun buzilishi holatlarining oldi olinishiga erishilmoqda.

BIG data imkoniyatlarini bojxona organlaridagi ahamiyatini e’tirof etgan holda ushbu maqolada katta ma’lumotlar bazasiga asoslangan “Ko‘zgu” statistikasini amalda qo‘llanilishining uslubiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Ko‘zgu statistikasi asosida ma’lumotlarini tahlil qilish bu bir xil tovar va davr uchun eksport qiluvchi mamlakatning tovar oqimi to‘g‘risida rasmiy ma’lumoti bilan import qiluvchi mamlakat tomonidan bildirilgan oqimlar bilan taqqoslash va nomuvofiqliklarni aniqlashdan iborat. Ushbu

ma’lumotlarni tahlil qilish texnikasi bojxona ma’muriyatini takomillashtirishda, ayniqsa, bojxona to‘lovlarini undiruvdanligini yanada oshirishda yuqori ahamiyatga ega.

Shunga ko‘ra O‘zbekiston tashqi savdosida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan Xitoy davlati bilan ko‘zgu statistikasi tahlil qilindi (1-jadval).

**1-jadval**

**O‘zbekiston Xitoy tovar oqimining qiyosiy tahlili[1]**
**(mlrd. AQSH dollarda)**

| **Davlatlar** | **Tovar oqimi** | **2024-yil** |
|---|---|---|
| **O‘zbekiston rasmiy ma’lumoti** | Xitoydan import | 10,3 |
| **Xitoy rasmiy ma’lumoti** | O‘zbekistonga eksport | 11,7 |
| **Farq** | | **-1,3** |

O‘zbekistonning jami importi tarkibida Xitoyning ulushi 29 foizni tashkil etadi. O‘zbekistonning rasmiy ma’lumotiga ko‘ra, 2024-yil Xitoydan O‘zbekistonga 10,3 mlrd AQSH dollarlik tovarlar import qilingan. Biroq Xitoyning rasmiy ma’lumotiga ko‘ra Xitoydan O‘zbekistonga 11,7 mlrd AQSH dollarlik tovarlar eksport qilingan. Mazkur holatda 1,3 mlrd AQSH dollarlik tovarlar norasmiy import bo‘lgan deb faraz qilish mumkin.

Aslida, tashqi savdo bojxona statistikasi uslubiyatiga ko‘ra, Xitoy bergan rasmiy eksport qiymatidan O‘zbekistonning rasmiy import qiymati ko‘p bo‘lishi kerak. Buni quyidagi rasmda yaqqol ko‘rish mumkin.




Xitoyning X tovarni O‘zbekistonga eksporti bo‘yicha rasmiy qiymati = **X+a**
O‘zbekistonning X tovarni Xitoydan importi bo‘yicha rasmiy qiymati = **X+a + b**
X – Tovar tan narxi;

a – Tovarni eksportyor mamlakatning chegarasigacha tashish bilan bog‘liq xarajatlar;
b – Tovarni tranzit mamlakat hududida tashish bilan bog‘liq xarajatlar;
c — Tovarni importyor mamlakat hududida tashish bilan bog‘liq xarajatlar.

[1] Xalqaro savdo markazi rasmiy sayti – trademap.org ma’lumotlar bazasi asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasida yuzaga kelgan 1,3 mlrd. AQSH dollar farq qaysi tovarlar hisobiga yuzaga kelganligini aniqlash maqsadida tovarlar kesimida Xitoy eksporti va O‘zbekiston importi tahlil qilindi (2-jadval).

**2-jadval**

**Tovar guruhi bo‘yicha ikki davlat o‘rtasidagi eksport-import operatsiyalarining solishtirma tahlili (1000 dollarda)**

| Guruhi | Tovar nomi | O‘zbekiston importi Xitoydan | Xitoy eksporti O‘zbekistonga | Farq |
|---|---|---|---|---|
| | | a | b | a-b |
| 87 | Transport vositalari va qismlari | 1 684 167 | 2 393 424 | -709 257 |
| 60 | Trikotaj matolar | 86 893 | 372 458 | -285 565 |
| 54 | Kimyoviy iplar | 70 826 | 231 939 | -161 113 |
| 73 | Qora metall mahsulotlari | 405 705 | 517 470 | -111 765 |

2024-yil O‘zbekiston va Xitoy ko‘zgu statistikasi bo‘yicha eng katta farqga ega bo‘lgan tovar guruhlariga aniqlik kiritildi[2]. Ushbu holatda eng ko‘p farq Transport vositalari va qismlariga to‘g‘ri kelmoqda. Ya’ni, Xitoydan olingan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, Xitoy O‘zbekistonga 2,4 mlrd AQSH dollar eksport qilgan, O‘zbekiston rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Xitoydan 1,7 mlrd AQSH dollar import qilgan. Shunga ko‘ra o‘rtadagi farq 709 mln. AQSH dollarni tashkil etmoqda. Bu kabi muammolar ko‘plab tovarlarda kuzatiladi.

O‘zbekiston tashqi savdosida bu kabi salbiy farqning chiqishi quyidagi bir qator salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin:

**birinchidan,** nolegal importning ko‘payishiga zamin yaratadi.

**ikkinchidan**, mamlakatda “Xufiyona iqtisodiyot” darajasi o‘sishiga zamin yaratadi.

**uchinchidan,** nolegal import bojxona to‘lovlari undiriluvdanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi kabi salbiy holatlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar beriladi:

**birinchidan,** Xitoy bilan mamlakatlararo o‘zaro solishtirma tahlil amalga oshirish uchun ikki tomonlama rasmiy muzokaralar tashkil etish;

**ikkinchidan,** Markaziy Osiyo Mintaqaviy Iqtisodiy Hamkorlik tashkiloti **(CAREC)** o‘rtasida yagona oyna tizimini joriy etish. Bu real vaqt rejimida bojxona organlari o‘rtasida tashqi savdo ma’lumotlarini almashish imkoniyatini beradi.

[2] Xalqaro savdo markazi rasmiy sayti – trademap.org ma’lumotlar bazasi asosida muallif tomonidan tahlil qilindi.